

3. Mishkin F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – Pearson Education, 2021.

4. Levine R. *Finance and Economic Growth: Theory and Evidence*. – Handbook of Economic Growth, 2018.

5. World Bank. *Global Investment Competitiveness Report 2022*.

O'ZBEKISTONNING XALQARO FOND BOZORLARIDAGI ISHTIROKI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Raxmonberdiyeva Feruza Rixsiboyevna

*TMC instituti "Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi"
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, xalqaro tajriba asosida uni takomillashtirish yo'nalishlari hamda investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, fond bozori likvidligini oshirish, IPO jarayonlarini kengaytirish va raqamli savdo platformalarini joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: fond bozori, kapital bozori infratuzilmasi, IPO, investorlarni himoya qilish, qimmatli qog'ozlar bozori, mobil savdo platformalari.

Dunyo fond infratuzilmasi rivojlanishidagi ijobiy tajribani umumlashtirgan holda aytish jozki, O'zbekiston fond infratuzilmasini takomillashtirish doirasidagi vazifalarni hal etish uchun Yevropa investorlari tomonidan o'n yillar davomida sinalgan bozor mexanizmlari va instrumentlarini O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish va investorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va imkon qadar foydalanish shart. Strategiyani dunyo moliya tizimi rivojlanishi yo'nalishini hisobga olgan holda shakllantirish esa milliy kapital bozorlari globallasuvi va integratsiyalashuvi sharoitida zarur raqobatbardoshlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston fond bozorining tizimli tashkil etuvchi infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish quyidagi taktik masalalarni o'z ichiga oladi:

- hisobga olish va hisob-kitob-kliring infratuzilmasini markazlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasida fond bozori faoliyatini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi Makroregulyatorni joriy etish;
- investorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini yaratish;
- birja faoliyatini jamlash va birlashtirish;
- infratuzilma faoliyati normalari, qoidalari va taomillarini standartlashtirish va unifikatsiya qilish.

O'zbekistonda fond bozori infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish lozim:

- hisobga olish va hisob-kitob kliring infratuzilmasini markazlashtirish;
- fond bozorini tartibga solishni takomillashtirish;
- fond bozoriga reklama vositalari va usullarini keng joriy etish asosida aholini keng qatlamini hamda manfaatdor tashkilotlarni fond bozorining afzalliklari haqida keng xabardor qilish;
- infratuzilma institutlari faoliyatini monopoliyadan chiqarish.

O'zbekiston fond bozori infratuzilmasini rivojlantirishdan ko'zlangan strategik maqsadlarga erishish uchun Rossiyada qulay investitsiya muhiti yaratilishi shart: investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat olib borish, siyosiy risklarni kamaytirish va investorlarning huquqlarini himoya qilish tizimini shakllantirish. Fond bozori hamda uning infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosatning muhim jihati shuki, u bozorning haqiqiy ehtiyojlarini inobatga oladi.

O'zbekiston fond bozori hamda uning infratuzilmasi jadal rivojlanish uchun qo'shimcha impuls olishi uchun makroiqtisodiy siyosatning investitsiya jalb qilishga yo'naltirilganligini kuchaytirish zarur. Buning natijasida iqtisodiy o'sish ta'minlanadi, iqtisodiyotning tuzilmasi modernizatsiya bo'ladi, moliya sohasi hamda sanoat rivojlanadi. Iqtisodiyotni iqtisodiy o'sish davriga o'tkazishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy islohotlarni davom ettirish uchun umumiy iqtisodiy tizim bilan va uning alohida qismlari bilan o'zaro bog'langan samarali fond bozori tashkil etish lozim.

Qimmatli qog'ozlar bozorida savdolarini amalga oshirishdagi qulayliklar banklardagi aholi uchun taklif etilayotgan omonatlar bilan raqobatlasha olmayotganligini hisobga olib, investorlar uchun O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar savdolarida mustaqil qatnashish (MDA) imkoniyatini yaratadigan mobil ilova (APP)ni yaratish hamda unga to'lov tizimlarini integratsiya qilish orqali amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Buning natijasida chakana investorlar hisobiga fond bozori savdolari hajmini yanada ko'paytirish, ularning moliyaviy resurlarini fond instrumentlariga yo'naltirish orqali milliy fond bozori instrumentlarining likvidligini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Fond bozorida likvid qimmatli qog'ozlar guruhining mavjud emasligi ya'ni ikkilamchi bozorda qiyinchiliksiz sotish mumkin bo'lgan milliy fond instrumentlarining kamligini hisobga olib moliyaviy instrumentlarni bosqichma bosqich devirsifikatsiya qilish zarur.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirilgan:

1. Fond bozorining hajmi mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan past ekanligini hisobga olib aksiyalar bo'yicha ommaviy savdolar hajmini oshirish, bunda davlat ulushi mavjud korxonalarni xususiyashtirishda IPO va SPOlardan keng foydalanishda ichki va tashqi investorlar uchun maxsus «ROAD SHOW»lar tashkil etish hamda ular orqali kapitalni fond bozori orqali jalb qilishni jadallashtirish zarur.

O'zbekistonda IPOlarni tashkil etishda bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlari amaliyotida foydalanilayotgan «Book building» usulini joriy etish orqali ommaviy takliflarni tashkillashtirishda kesishish narxlarini optimallashtirish, talab darajasini oldindan aniqlash, salohiyatli investorlarni savdolariga jalb qilish shu bilan birga chakana investorlar hamda institutsional investorlarga qimmatli qog'ozlarni taqsimlash jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

2. O'zbekistonda kapital bozori regulyatori vazifasini bajarishida «Kapital bozorini rivojlantirish agentligi»da yetarlicha vakolat yo'qligini hisobga olib, jahonning yetakchi davlatlari tajribalaridan kelib chiqqan holda agentlikga Davlat aktivlarini xususiyashtirishda hamkorlikni olib borish va strategiyalarni ishlab chiqish jarayonlarida to'liq ishtirokini va vakolatlarini ta'minlash imkoniyatini berish zarur. Bu orqali davlat aktivlarini xususiyashtirishda shaffoflikka erishish va savdolarini tashkil qilish (davlat aktivlarini ham xususiy aktivlarni ham sotish)da yagona shartlar asosida raqobat muhitini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

3. Davlat ulushi mavjud korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarni jalb qilishlarida fond bozori imkoniyatlaridan foydalanilmayotganligini hisobga olib korporativ tuzilmalar moliyaviy resurlar jalb qilishlarida xizmat ko'rsatadigan konsalting institutlarini rivojlantirish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Bundan tashqari, jalb qilingan resurslarni muqobil variantlar orasidan eng maqbulini tanlanganligi ustidan nazoratni amalga oshirish fond bozori orqali kapital harakatini kuchaytiradi.

4. O'zbekistonda ommaviy savdolar hajmining pastligi yoki bu borada ham davlat aralashuvining yuqoriligi, qonunchilikning o'ta murakkabligi natijasida investorlar uchun investitsiya muhitini yaxshilash zaruratining mavjudligini hisobga olib, qonunchilik tizimini soddalashtirish va konsolidallashtirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soladigan yagona «kodeks»ni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu investorlar o'z huquq va majburiyatlarini bilishlarida, savdolarida qatnashish tartib tamoyillarini to'liq anglab yetishlarida hamda investitsiya jarayonidagi nizoli holatlarni oldini olishda hamda pirovardida O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Миркин Я.М. *Сенные бумаги и фондовый рынок. М.:Перспектива.-1995.*
2. Брейли Ричард, Майерс Стюарт *Принципы корпоративных финансов: Пер. Англ. – М.: Олимп-бизнес, 2004;*
3. Кулячков А.А., Чалдаева Л.А. *Рынок сенных бумаг и биржевое дело. – М.: Юрист, 2005.- 687 с.;*
4. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz *International Finance: Theory and Policy, Global Edition 2017 y*
5. A.Vahobov, G.A.Qosimova *Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma T.: «Iqtisod-moliya», 2008. 260 b.*
6. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz *International Finance: Theory and Policy, Global Edition 2017.*

МУЛЬТИЛИСТИНГОВАЯ СИСТЕМА КАК ИНСТРУМЕНТ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ РИЭЛТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Мирзарахманов Фаррух Сапарали угли,
*Младший научный сотрудник Центра исследований
Агентства по управлению государственными активами
Республики Узбекистан*

Рынок недвижимости в Республике Узбекистан динамично развивается на фоне роста населения, урбанизации, расширения ипотечных программ и увеличения количества сделок с жильём и коммерческой недвижимостью. В этих условиях риэлторская деятельность становится важным элементом инфраструктуры рынка, от качества которого напрямую зависят безопасность сделок, доверие граждан и прозрачность оборота недвижимости. Цифровая трансформация риэлторской деятельности должна рассматриваться не как создание разрозненных онлайн-витрин и сайтов объявлений, а как формирование такой цифровой среды, которая обеспечивает достоверность